Shuningdek, YETTBning "Low Carbon Pathway for NavoiAzot" loyihasi (EBRD, 2024c) va boshqa "Green Economy Transition" tashabbuslari energiya samaradorligini oshirish, chiqindilarni kamaytirish va uglerod izini qisqartirishga qaratilgan. Fintecc (2021) tomonidan berilgan holat tahlillari bu yo'nalishdagi texnologik yangiliklarning mahalliy ishlab chiqarish korxonalarida amaliy natija berayotganini ko'rsatadi.

World Bank (2024) tomonidan taqdim etilgan iqtisodiy yangilanish sharhi YETTB kabi xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlikning O'zbekiston iqtisodiy o'sishi va barqarorligi uchun muhim omil ekanini ta'kidlaydi. Bundan tashqari, mahalliy manbalar — Hamkorbank rasmiy hisobotlari va kredit portfeli ma'lumotlari — ushbu hamkorlikning amaliy samaralarini tasdiqlaydi.

Umuman olganda, mavjud adabiyotlar YETTBning O'zbekistondagi investitsiyalari iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash, moliyaviy resurslarni kengaytirish va modernizatsiya jarayonlarini jadallashtirishda muhim rol o'ynayotganini ilmiy asoslaydi. Shu bilan birga, ushbu manbalar YETTBning nafaqat moliyaviy, balki institutsional va texnik rivojlanishga qo'shayotgan hissasini ham atroflicha yoritadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqot xalqaro moliya institutlarining, xususan Yevropa tiklanish va taraqqiyot bankining (YETTB) O'zbekistondagi bank sektori va iqtisodiyotga ko'rsatgan ta'sirini tahlil qilishga qaratilgan. Tadqiqot sifat va miqdoriy tahlil usullarini uyg'unlashtirgan holda amalga oshirildi.



Tadqiqot obyekti va predmeti

Tadqiqot obyekti sifatida YETTBning O'zbekistondagi faoliyati, uning bank sektori bilan hamkorlik mexanizmlari, moliyalashtirilgan loyihalar va ularning iqtisodiy natijalari olindi. Predmet sifatida — moliyaviy instrumentlar (sindikatlashgan kreditlar, texnik ko'mak, kapitalga kiritilgan investitsiyalar), hamkorlik tajribasi (Hamkorbank ATB misolida), shuningdek bank sektori va real iqtisodiyotga ko'rsatilgan ta'sir tahlil qilindi.

Tadqiqot manbalari

Tadqiqot jarayonida ishonchli va rasmiy tasdiqlangan ma'lumotlar manbalari sifatida quyidagilardan foydalanildi:

Yevropa tiklanish va taraqqiyot bankining 2020–2024-yillar davriga oid yillik hisobotlari;

YETTBning O'zbekiston bilan hamkorlik dasturlari bo'yicha rasmiy bayonotlar va axborot materiallari;

O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki hamda Iqtisodiy tadqiqotlar instituti tomonidan e'lon qilingan ma'lumotlar;

Hamkorbank ATBning yillik hisobotlari va rasmiy press-relizlari;

Jahon banki va Xalqaro Valyuta Jamg'armasi kabi xalqaro tashkilotlarning makroiqtisodiy ko'rsatkichlari.

Tadqiqot usullari

Tahlil quyidagi ilmiy usullar orqali amalga oshirildi:

Mazmun tahlili — YETTB va boshqa XMllarning faoliyati haqidagi hisobotlar, ilmiy maqolalar va dasturlar mazmun jihatidan o'rganildi;

Qiyosiy tahlil — YETTBning O'zbekistondagi investitsiya strategiyasi boshqa xalqaro moliya institutlari tajribasi bilan taqqoslab tahlil qilindi;

Dinamika tahlili — 2020–2024-yillarda sarmoya hajmi va yo'nalishlar bo'yicha o'zgarishlar grafik va jadvallar orqali ko'rsatildi;

Keys tahlil — Hamkorbank ATB bilan hamkorlikda amalga oshirilgan loyihalar misolida amaliy natijalar o'rganildi.

Cheklovlar

Tadqiqotning asosiy e'tibori YETTB faoliyatiga qaratilgan bo'lib, boshqa XMllar faoliyati cheklangan ko'lamda yoritildi. Ayrim loyihalar bo'yicha to'liq ma'lumotlar oshkor qilinmaganligi sababli, tahlilning ba'zi qismi umumlashtirilgan shaklda taqdim etildi. Shu bilan birga, mavjud ma'lumotlar asosida xolis va ilmiy asoslangan xulosalar shakllantirildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Ushbu bo'limda Yevropa tiklanish va taraqqiyot bankining (YETTB) O'zbekistondagi so'nggi besh yillik faoliyati tahlil qilinib, uning bank sektori, xususiy biznes va iqtisodiyotning turli sohalariga ko'rsatgan ijobiy ta'siri yoritiladi. Jumladan, investitsiya hajmi, ustuvor yo'nalishlar hamda tijorat banklari bilan amalga oshirilgan hamkorlik natijalari batafsil ko'rib chiqiladi.

YETTB investitsiyalarining o'sish dinamikasi (2020–2024)

2020–2024-yillar oralig'ida YETTB O'zbekistonda turli yo'nalishdagi loyihalarni moliyalashtirish uchun umumiy hisobda 3,6 milliard yevroga teng sarmoya yo'naltirdi. Faqatgina 2024-yilda ajratilgan mablag' 938 million yevroga yetib, bu ko'rsatkich Markaziy Osiyo davlatlari orasida eng yuqori natija bo'ldi (EBRD, 2025) (1-jadval).

1-jadval. 2020–2024-yillarda YETTBning O'zbekistondagi investitsiyalari

Yil	Loyiha soni	Investitsiya hajmi (mln yevro)
2020	17	521
2021	25	635
2022	26	718
2023	27	782
2024	28	938

Manba: EBRD Uzbekistan Country Factsheet, Annual Reports 2020–2024



1-rasm

Diagramma Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki (YETTB) tomonidan 2020–2024-yillar oralig'ida O'zbekistonda amalga oshirilgan investitsiya hajmini aks ettiradi. O'sish tendensiyasini ko'rsatuvchi chiziq orqali ushbu davr mobaynida sarmoyalar bosqichma-bosqich ortib borganini kuzatish mumkin.

1. 2020-yil ma'lumotlariga ko'ra, YETTBning O'zbekistondagi investitsiya hajmi 521 million yevroga teng bo'lgan. Mazkur davr mamlakatda bank faoliyatining yangi bosqichga qadam qo'ygan vaqti bilan mos keladi. Keyingi yillarda ko'rsatkich barqaror o'sish tendensiyasini namoyon etdi.

2. 2021–2023-yillar mobaynida investitsiya hajmi har yili izchil oshdi:

- 2021-yil: 635 mln yevro

- 2022-yil: 718 mln yevro

- 2023-yil: 782 mln yevro

Ushbu holat O'zbekistonda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar, xususiyl sektorini rivojlantirish va XMIlar uchun qulay sharoitlar yaratilayotganining yaqqol dalilidir.

3. 2024-yil eng yuqori sarmoya kiritilgan yil sifatida qayd etildi — 938 million yevro miqdoridagi mablag' O'zbekistonni YETTBning Markaziy Osiyodagi yetakchi hamkorlaridan biriga aylantirdi (2-jadval).

2-jadval. 2024-yilda Markaziy Osiyo davlatlariga YETTB tomonidan kiritilgan investitsiyalar(mln yevro)

№	Davlatlar nomi	2024-yil
1	Qozog'iston	913
2	Qirg'iz Respublikasi	52
3	Tojikiston	88
4	Turkmaniston	4
5	O'zbekiston	938
	Jami	1 995

Sohalar kesimida moliyalashtirish

Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki (YETTB) tomonidan O'zbekistonda yo'naltirilayotgan mablag'larning katta qismi xususiyl sektorini rivojlantirish, qayta tiklanadigan energetika va sanoat tarmoqlarini kengaytirish, shuningdek, infratuzilma hamda transport loyihalarini amalga oshirishga sarflanadi. Moliyalashtirishning muhim yo'nalishlaridan biri — tijorat banklari orqali kichik va o'rta tadbirkorlik (KOT) subyektlarini qo'llab-quvvatlash hisoblanadi (3-jadval).



3-jadval. 2024-yilda investitsiyalarning sohalar bo'yicha taqsimoti (%)

Sohalar	Ulushi (%)
Qayta tiklanadigan energetika	28
Tijorat banklari orqali KOT	25
Infratuzilma va transport	20
Qishloq xo'jaligi va sanoat	15
Texnika va maslahat yordami	12

Yashil iqtisodiyot tamoyillariga e'tibor

2024-yilda joriy etilgan sarmoya siyosatida "yashil iqtisodiyot" tamoyillariga alohida e'tibor qaratildi. Yillik mablag' taqsimoti tahliliga ko'ra, investitsiyalarning qariyb 55 foizi ekologik barqarorlikni ta'minlash va energiya samaradorligini oshirishga qaratilgan loyihalarga yo'naltirildi.

YETTB – Hamkorbank hamkorligi natijalari

2018-yildan buyon YETTB va Hamkorbank ATB o'rtasida izchil va samarali hamkorlik yo'lga qo'yilgan bo'lib, u bir qator strategik yo'nalishlarni qamrab oladi. Jumladan:

Sindikatlashgan kreditlar — 2021–2024-yillar mobaynida bank YETTBdan to'g'ridan-to'g'ri va sindikat asosida jami 75 million yevro atrofida mablag' jalb qildi. Ushbu resurslar asosan kichik tadbirkorlik subyektlarini qo'llab-quvvatlashga yo'naltirildi.

Texnik yordam — bankda ESG standartlarini joriy etish va komplaens tizimini mustahkamlash maqsadida YETTB mutaxassislari tomonidan maslahat xizmati va o'quv dasturlari amalga oshirildi.

Gender tenglik tashabbuslari — "Women in Business" dasturi doirasida ayol tadbirkorlar uchun mo'ljallangan maxsus kredit liniyalari ishga tushirildi.

Mazkur hamkorlik natijasida Hamkorbankning kredit portfeli diversifikatsiyasi oshdi, xalqaro moliya resurslariga kirish imkoniyatlari kengaydi va korporativ boshqaruv tizimi yanada takomillashdi.

Hamkorbank ATBning XMI bilan hamkorlikdagi ko'rsatkichlari

So'nggi yillarda Hamkorbank ATB xalqaro moliya institutlari (XMI), jumladan YETTB bilan hamkorlikni izchil rivojlantirib kelmoqda. Bu hamkorlik bankning kredit portfeli hajmi va moliyalashtirish manbalaridagi diversifikatsiya darajasini sezilarli darajada oshirdi (4-jadval).

4-jadval. Hamkorbank ATB kredit portfeli tarkibi (ming so'mda)

Ko'rsatkichlar	01.01.2023	01.01.2024	01.01.2025	01.07.2025
Kredit portfeli	11 423 422 276	15 854 217 639	19 178 062 857	20 841 993 872
Bank o'z mablag'lari hisobidan	4 774 138 748	7 403 686 587	8 741 982 131	9 220 724 371
Respublika ichida tashkil etilgan jamg'armalar	1 014 103 052	1 460 104 224	2 249 824 514	2 695 850 603
XMI mablag'lari hisobidan	5 635 180 476	6 990 426 829	8 186 256 212	8 925 418 898
Jami kredit portfeliga nisbatan ulushi (%)	49,3	44,1	42,7	42,8
Shundan YETTB mablag'lari	417 782 375	493 032 733	730 854 624	630 625 078
Jami XMI mablag'lariga nisbatan YETTB mablag'lari ulushi (%)	7,41	7,05	8,93	7,07

Jadval ma'lumotlariga ko'ra, 2023-yil 1-yanvardan 2025-yil 1-iyulga qadar umumiy kredit portfeli 11,42 trln so'mdan 20,84 trln so'mgacha yoki 82,4 foizga oshdi. Ushbu o'sishda xalqaro moliya institutlari (XMI) mablag'lari muhim o'rin tutdi — ularning hajmi mazkur davrda 5,63 trln so'mdan 8,93 trln so'mgacha ko'paydi (+58,5 foiz). Kredit portfeli umumiy hajmiga nisbatan XMI mablag'lari ulushi esa 2023-yildagi 49,3 foizdan 2025-yil birinchi yarmida 42,8 foizgacha kamaydi. Bu holat bankning ichki mablag'lari hissasining ortgani va tashqi moliya manbalariga nisbiy qaramlikning kamayganini ko'rsatadi.

YETTB mablag'lari 2023-yilda 417,8 mlrd so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2025-yil boshida 730,9 mlrd so'mgacha yoki 75 foizga oshdi. Bu ko'rsatkich XMI mablag'laridagi ulushni 7,41 foizdan 8,93 foizgacha oshirishga imkon berdi. 2025-yil birinchi yarmida esa YETTB mablag'lari 630,6 mlrd so'mni tashkil etdi va XMI mablag'laridagi



ulushi 7,07 foizga teng bo'ldi. Ushbu o'zgarish asosan muddatli majburiyatlarning qisman qaytarilishi bilan izohlanadi.

Bundan tashqari, XMI mablag'larini jalb etishda raqobat muhitining yuqoriligi kuzatiladi. Xalqaro moliya institutlari ichida Jahon banki, Osiyo taraqqiyot banki (OTB), Niderlandiyaning FMO agentligi va Xalqaro moliya korporatsiyasi (IFC) kabi tashkilotlar faol ishtirok etmoqda.

YETTB moliyalashtirish faoliyatida asosan "yashil iqtisodiyot", energiya samaradorligi hamda kichik va o'rta biznesni qo'llab-quvvatlash yo'nalishlariga ustuvorlik beriladi. Hamkorbankning barcha kredit yo'nalishlari YETTB dasturlariga to'liq mos kelmasligi natijasida ayrim hollarda mablag' ajratish hajmi chegaralanishi mumkin.

YETTB tomonidan taqdim etilgan mablag'lar, asosan, bankning kichik va o'rta biznesni rivojlantirish, "yashil iqtisodiyot" loyihalarini moliyalashtirish hamda mahalliy infratuzilmani takomillashtirish yo'nalishlariga yo'naltirildi. Ushbu mablag'lardan samarali foydalanish natijasida bankning moliyaviy ko'rsatkichlari yaxshilandi, likvidlik darajasi yuqori darajada saqlandi va kredit portfelining tarkibida uzoq muddatli, investitsiya yo'nalishidagi loyihalar ulushi ortdi.



2-rasm

Jadval va rasm tahlillari (4-jadval, 2-rasm) XMI va YETTB mablag'lari dinamikasi hamda ularning kredit portfelidagi ulushi bo'yicha o'zgarishlarni aniq namoyon etadi. Tahlil natijalaridan ko'rinishicha, XMI mablag'lari izchil o'sib borgan, YETTB mablag'lari esa 2025-yil birinchi yarmida biroz kamaygan. Kredit portfelida XMI ulushining nisbatan pasayishi, YETTB ulushining esa qisqa muddatda oshib, so'ngra biroz kamayishi kuzatilgan.

Shunday qilib, tahlil natijalari Hamkorbankning YETTB bilan hamkorligi kredit resurslarini diversifikatsiya qilish, ularni iqtisodiyotning turli tarmoqlariga yo'naltirish va strategik loyihalarni amalga oshirishda muhim ahamiyat kasb etayotganini ko'rsatadi. Mablag'lar hajmini barqaror oshirib borish uchun yangi shartnomalar va loyihalarni o'z vaqtida yo'lga qo'yish tavsiya etiladi.

Iqtisodiy ta'sir ko'rsatkichlari

YETTB ishtirokida amalga oshirilgan loyihalar iqtisodiyotning turli sohalarida sezilarli natijalar berdi. Jumladan:

2024-yil davomida qo'llab-quvvatlangan kichik va o'rta biznes subyektlari soni 2 200 tadan oshdi; energiya tejavchi texnologiyalarni joriy etish orqali atmosferaga chiqariladigan SO₂ chiqindilari miqdorini kamaytirishga qaratilgan tadbirlar amalga oshirildi;

2022–2024-yillar oralig'ida qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 12 foizga oshdi; mahalliy bank sektoridagi islohotlarga yetakchi uchta tijorat banki faol jalb etildi.

YETTBning O'zbekistondagi asosiy tijorat banklari bilan hamkorligi

Hamkorbank ATB — YETTB Risk Sharing Framework (RSF) doirasida Hamkorbank orqali bir nechta loyihalarni moliyalashtirdi. Jumladan, Avtobus Rent kompaniyasi (1,1 mln AQSH dollari) va Tillo Domor (3,1 mln AQSH dollari) kabi biznes subyektlariga risklarni taqsimlash asosida kreditlar ajratildi. Ishonchli hamkor sifatida YETTB Hamkorbank orqali mahalliy kichik va o'rta biznes subyektlariga kreditlash imkoniyatlarini kengaytirmoqda.

SQB (Small and Medium Business Bank of Uzbekistan) — YETTB va SQB hamkorligida Qadrli kompaniyasiga 2 mln AQSH dollari miqdorida kredit ajratilib, u non mahsulotlari ishlab chiqarishni rivojlantirishga yo'naltirildi. Ushbu loyiha ham Risk Sharing Framework doirasida amalga oshirildi.



TBC Bank (TBC UZ) — YETTB va Xalqaro moliya korporatsiyasi (IFC) bilan hamkorlikda TBC Bank Uzbekistan'da sheriklik asosida loyihalar amalga oshirilmoqda. YETTB va IFC har biri 20 foiz ulush bilan hamkorlik qilmoqda. Ushbu tizim YETTBning xususiy sektor va raqamli moliyaviy xizmatlarni rivojlantirishdagi ishtirokini kuchaytiruvchi muhim mexanizmdir.

O'tkazilgan tahlillar YETTBning O'zbekistondagi iqtisodiy islohotlarga, ayniqsa bank sektori va xususiy tadbirkorlik rivojiga ko'rsatayotgan ta'sirini aniq ko'rsatadi. YETTB investitsiyalarining o'sish dinamikasi, sohalar kesimida diversifikatsiya hamda tijorat banklari orqali amalga oshirilgan moliyalashtirish mexanizmlari mamlakatdagi islohotlarni qo'llab-quvvatlashda samarali vosita bo'lib xizmat qilmoqda.

YETTBning investitsiya strategiyasida "yashil iqtisodiyot"ga ustuvorlik berilishi uning Markaziy Osiyodagi boshqa xalqaro moliya tashkilotlaridan farqli jihatidir. Masalan, Jahon banki asosan infratuzilma loyihalari va davlat moliyasi orqali makroiqtisodiy barqarorlikka e'tibor qaratadi, YETTB esa ko'proq xususiy sektor bilan bevosita ishlash orqali raqobat muhitini shakllantirish va bozor mexanizmlarini rivojlantirishga intiladi.

Shuningdek, YETTBning Hamkorbank, SQB va TBC Bank kabi tijorat banklari bilan hamkorligi moliyaviy resurslarni ajratishdan tashqari, ESG talablarini joriy etish, ichki boshqaruv tizimini takomillashtirish va uzoq muddatli barqaror rivojlanishni ta'minlash kabi yo'nalishlarni ham qamrab oladi. Bu esa hamkor banklarga xalqaro standartlarga mos faoliyat yuritish imkoniyatini yaratadi.

Aniqlangan asosiy jihatlar

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, YETTB bilan hamkorlik asosan yirik tijorat banklari doirasida shakllangan. Ayni paytda kichik hududiy banklar va mikroqarz tashkilotlarining XMI hamda YETTB mablag'laridan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish maqsadga muvofiqdir.

Texnik ko'mak va bilim almashish elementlari barcha loyihalarda to'liq qamrab olinishi uchun quyidagi omillar e'tiborga olinishi lozim:

Loyiha tayyorgarlik bosqichining davomiyligi — YETTB mablag' ajratishdan oldin har bir loyiha uchun to'liq texnik-iqtisodiy asoslash (TIA) va moliyaviy tahlil o'tkazadi. Ushbu jarayonga ekologik va ijtimoiy ta'sir baholash (ESIA), bozor tahlili va xavf tahlillari ham kiradi. Loyiha tasdiqlanishi odatda 3 oy va undan ko'proq vaqt olishi mumkin.

ESG standartlari va muvofiqlik tekshiruvlari — YETTB har bir loyihada ekologik, ijtimoiy va korporativ boshqaruv talablari bo'yicha yuqori standartlarga rioya qiladi. Bu talablar ayrim hollarda mahalliy qonunchilik me'yorlaridan yuqori bo'lishi mumkin va qo'shimcha hujjatlar tayyorlash zaruriyatini keltirib chiqaradi.

Muzokaralar va kelishuv jarayoni — Loyiha shartlarini kelishishda texnik tafsilotlar, to'lov grafigi, valyuta turi va foiz stavkalari bo'yicha batafsil muzokaralar olib boriladi. Bu bosqich ham bir necha oy davom etishi mumkin.

Moliyalashtirishning bosqichma-bosqich ajratilishi — YETTB mablag'larni ko'pincha bosqichma-bosqich (tranche) shaklida ajratadi. Har bir bosqich bo'yicha sarflangan mablag'lar yuzasidan hisobot taqdim etilishi talab etiladi, bu esa umumiy muddatni uzaytirishi mumkin.

Mijozlar tayyorgarligi — Agar loyiha tashabbuskori korxonada moliyaviy hisobot, ekologik hujjatlar yoki biznes-reja tayyor bo'lmasa, bu jarayonning cho'zilishiga olib kelishi mumkin.

Mazkur omillar YETTB mablag'larining mahalliy banklar orqali yo'naltirilish hajmini optimallashtirishga ta'sir ko'rsatadi. Shu bois, ushbu jarayonlarda tayyorgarlikni kuchaytirish, hujjat aylanishini soddalashtirish va hamkorlik samaradorligini oshirish tavsiya etiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'tkazilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, xalqaro moliya institutlari, xususan Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki (YETTB), O'zbekiston bank sektori va iqtisodiyotiga sezilarli ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda. YETTBning xususiy sektorni qo'llab-quvvatlashga yo'naltirilgan investitsiya siyosati, mahalliy banklar bilan to'g'ridan-to'g'ri hamkorligi, "yashil iqtisodiyot" va gender tengligi kabi ustuvor yo'nalishlardagi loyihalar mamlakatdagi islohot jarayonlarini jadallashtirishga xizmat qilmoqda. 2024-yilda YETTBning O'zbekistondagi investitsiyalari rekord darajaga — 938 million yevroga yetib, mamlakatning Markaziy Osiyodagi yetakchi hamkor maqomini yanada mustahkamladi. Hamkorbank, SQB va TBC Bank bilan amalga oshirilgan qo'shma loyihalar nafaqat moliyaviy resurslarni kengaytirishga, balki korporativ boshqaruv madaniyatini rivojlantirish, ESG standartlarini joriy etish va raqamli texnologiyalarni tatbiq etish sohalarida ham muhim natijalarga erishishga xizmat qildi. YETTB investitsiyalari iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash, ayniqsa xususiy sektor va kichik hamda o'rta biznes (KOB) uchun yangi moliyaviy imkoniyatlar yaratishda muhim rol o'ynamoqda, YETTB bilan hamkorlik tijorat banklariga xalqaro moliyaviy talablar va standartlarga tezroq moslashish, ichki jarayonlarni modernizatsiya qilish va strategik yo'nalishlarni diversifikatsiya qilish imkoniyatini berdi, XMllar ishtirokidagi loyihalar esa mahalliy ishlab chiqarish, energiya samaradorligini oshirish va tadbirkorlik muhitini yaxshilashga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda. Shu asosda, XMllar bilan hamkorlik doirasini kengaytirish, ayniqsa hududiy va kichik banklarni



xalqaro loyihalarga jalb etish, ESG, risk boshqaruvi va komplaens yo'nalishlarida texnik ko'mak dasturlarini barcha moliya muassasalariga tatbiq etish, kichik va o'rta biznes subyektlari uchun kredit mahsulotlari va moliyaviy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini yanada soddalashtirish hamda XMI ishtirokidagi har bir loyihaning natija ko'rsatkichlari va ijtimoiy-iqtisodiy ta'sirini ochiq tahlil qilish va monitoring qilish tizimini yo'lga qo'yish tavsiya etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. EBRD (2025). Uzbekistan remains EBRD top investment destination in Central Asia. [online] 17-yanvar 2025-yil. Mavjud manzil: <https://www.ebrd.com/news/2025/uzbekistan-remains-ebrd-top-investment-destination-in-central-asia.html> [murojaat qilingan sana: 4-avgust 2025-yil].
2. EBRD (2024a). EBRD and partner banks support growth of local businesses. [online] Mavjud manzil: <https://www.ebrd.com/news/2024/ebrd-and-partner-banks-support-growth-of-local-businesses.html> [murojaat qilingan sana: 4-avgust 2025-yil].
3. EBRD (2021). EBRD and Hamkorbank support dairy industry in Uzbekistan. [online] Mavjud manzil: <https://www.ebrd.com/news/2021/ebrd-and-hamkorbank-support-dairy-industry-in-uzbekistan.html> [murojaat qilingan sana: 4-avgust 2025-yil].
4. EBRD (2024b). GEFF II Uzbekistan Loan I. [online] Project Summary Document. Mavjud manzil: <https://www.ebrd.com/work-with-us/projects/psd/54557.html> [murojaat qilingan sana: 4-avgust 2025-yil].
5. EBRD (2023). Hamkorbank MSME Loan III. [online] Project Summary Document. Mavjud manzil: <https://www.ebrd.com/work-with-us/projects/psd/54559.html> [murojaat qilingan sana: 4-avgust 2025-yil].
6. TBC Bank Group (2025). TBC announces new holding company with EBRD and IFC in Uzbekistan. [online] Mavjud manzil: <https://www.tbcbankgroup.com/news-and-media/press-releases/news/2025/tbc-announces-new-holding-company-with-ebrd-and-ifc-in-uzbekistan> [murojaat qilingan sana: 4-avgust 2025-yil].
7. EBRD (2024c). Low Carbon Pathway for NavoiAzot. [online] Mavjud manzil: https://www.ebrd.com/content/dam/ebrd_dxp/assets/pdfs/green-economy-transition/low-carbon-pathways/Uzbekistan%20LCP.pdf [murojaat qilingan sana: 4-avgust 2025-yil].
8. EBRD (2024d). EBRD Impact Report 2024 – Impact on the Green Transition. [online] Mavjud manzil: https://www.ebrd.com/content/dam/ebrd_dxp/assets/pdfs/communications-department/impact-report/ebrd-impact-report-2024-impact-on-the-green-transition.pdf [murojaat qilingan sana: 4-avgust 2025-yil].
9. Fintecc (2021). Energy-saving success story: Tillo Domor dairy factory in Uzbekistan. [online] Mavjud manzil: <https://fintecc.ebrd.com/news/n-tillo> [murojaat qilingan sana: 4-avgust 2025-yil].
10. World Bank (2024). Uzbekistan Economic Update – Spring 2024. [online] Mavjud manzil: <https://www.worldbank.org/en/country/uzbekistan/publication/spring-2024-economic-update> [murojaat qilingan sana: 4-avgust 2025-yil].
11. Hamkorbank rasmiy sayti – www.xamkorbank.uz.
12. Hamkorbank rasmiy bayonotlari va yillik hisobotlari.
13. "Hamkorbank" ATB kredit portfeli ma'lumotlari.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 8

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
